

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

KARSHIYEV USMON TEMIROVICH

**QUYONLARDA KALSIY-FOSFOR ALMASHINUVI BUZILISHINING
DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI**

16.00.01 - Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Veterinariya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
ветеринарным наукам**

Content of the abstract of doctoral dissertation (PhD) on veterinary sciences

Karshiyev Usmon Temirovich

Quyondarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishining diagnostikasi va
profilaktikasi..... 3

Каршиев Усмон Темирович

Диагностика и профилактика нарушения кальций-фосфорного обмена у
кроликов..... 23

Karshiev Usmon Temirovich

Diagnosis and prevention of calcium-phosphorus metabolism disorders in
rabbits..... 45

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI

Список опубликованных работ

List of published works..... 49

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.06/30.12.2019.V.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

KARSHIYEV USMON TEMIROVICH

**QUYONLARDA KALSIY-FOSFOR ALMASHINUVI BUZILISHINING
DIAGNOSTIKASI VA PROFILAKTIKASI**

16.00.01 - Hayvonlar kasalliklari diagnostikasi, terapiyasi va xirurgiyasi

**VETERINARIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Samarqand - 2024

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/V71 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.ssuv.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Eshburiyev Sobir Baxtiyorovich
veterinariya fanlari doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Bakirov Baxtiyar
veterinariya fanlari doktori, professor

Mamatov Shavkat Sodiqovich
veterinariya fanlari nomzodi

Yetakchi tashkilot:

Veterinariya ilmiy - tadqiqot instituti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.06/30.12.2019.V.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «10» iyul soat «10⁰⁰» dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86; e-mail: ssuv@edu.uz)

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (14323 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 140103, Samarqand shahri, M.Ulug'bek ko'chasi, 77- uy. Tel./faks: (99866) 234-76-86.

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «26» 06 kuni tarqatildi.
(2024 yil «26» 06 dagi № 8 - raqamli reystr bayonnomasi)



X.B. Yunusov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, biol.f.d., professor

T.I. Taylakov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
ilmiy kotibi; vet.f.d., dotsent

Q.N. Norboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi
ilmiy seminar raisi, vet. f. d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyo miqyosida zotli quyonlar orasida moddalar almashinuvi buzilishlari, shu jumladan kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishi kasalliklari, uning oqibatida nimjon va hayotchanligi past bo'lgan yoki o'lik quyon bolalarining tug'ilish holatlari ko'p uchramoqda. Bu o'z navbatida sohani jadal rivojlantirish, quyonchilikda rentabellikga erishish, sifatli quyon go'shti va mo'yna olishga katta to'siqlardan sanaladi. Ekologik toza parhez bop quyon go'shtini yetishtirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va aholining quyon mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirishda quyonlarda uchraydigan modda almashinuvi buzilishi kasalliklari, xususan kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarini erta tashxislash, samarali davolash va oldini olish usullarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Quyonlarda uchraydigan kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishi kasalliklarining sabablarini aniqlash, simptom va sindromlarini o'rganish asosida ushbu patologiyani barvaqt diagnostika qilish usullari hamda guruhli profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanadi.

Jahon mamlakatlarida quyonlarning minerallar almashinuvi buzilishlari, shuningdek, «kalsiy va fosfor makroelementlarining yetishmovchiligi ularda o'sishdan qolish, mahsuldorlik va pushtdorlikning pasayishiga sabab bo'lib, ona quyonlardan hayotchanligi past, kasalliklarga chidamsiz, tug'ilgandagi tana vaznining o'rtacha 5,4% ga kam bo'lgan nasl olinmoqda»¹. Quyonlarning biologik xususiyatlari, saqlash va oziqlantirish sharoitlarini hamda organizm ehtiyojlarini hisobga olgan holda ratsionni minerallar va biologik faol moddalar bilan boyitish orqali kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining guruhli profilaktika chora-tadbirlarini ishlab chiqishga qaratilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega.

Respublikamizda chorvachilikning muhim tarmoqlaridan biri hisoblangan quyonchilikni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohatlar natijasida zotli quyonlar soni ko'payib, mahsuldorligi va pushtdorligi oshib bormoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturda «quyonchilik tarmog'ini yanada rivojlantirish, sifatli quyon go'shti iste'mol qilish darajasini ko'tarish hamda umumiy go'sht mahsulotlari hajmida uning ulushini oshirish nazarda tutilgan bo'lib, quyon go'shtini yetishtirish hajmini 100 tonnadan 23 ming tonnaga, aholi jon boshiga quyon go'shtini iste'mol qilish hajmini 3 kilogrammdan oshirishga erishish kabi muhim vazifalar belgilangan²». Ushbu dolzarb vazifalarni samarali bajarish uchun quyonlarning modda almashinuvi buzilishi kasalliklari, xususan mineral moddalar almashinuvi buzilishi kasalliklari katta to'siqlardan biri bo'lmoqda. Quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishi kasalliklari ko'p qayd etilib, ular organizmida tabiiy rezistentlik va mahsuldorlikning pasayishi, yosh quyonlarning o'sish va

¹ Жуков Сергей Павлович. Применение препарата «Фоспренил» для повышения воспроизводительной способности, продуктивности и сохранности кроликов : Дис. ... канд. вет. наук : Воронеж, 2005. 120 с.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 8 fevraldagi PQ-120-son "O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026 yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi qarori

rivojlanishdan qolishi, bo'g'oz quyonlarda bola tashlash yoki nimjon, hayotchanligi past nasl olinishi holatlari uchramoqda. Shu boisdan, quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining tarqalishi, iqtisodiy zarari, etiologiyasini aniqlash, erta diagnostika qilish, guruhli oldini olishning yuqori samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish sohadagi dolzarb muammolar hisoblanadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqotlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»³ farmoni, 2020-yil 29-yanvardagi PQ-4576-sonli «Chorvachilik tarmog'ini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida»gi va 2022-yil 8-fevraldagi PQ-121-son «Chorvachilikni yanada rivojlantirish va ozuqa bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi, 2022-yil 31-martdagi PQ-187-son «Veterinariya va chorvachilik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida»gi, 2022-yil 8-fevraldagi PQ-120-son «O'zbekiston Respublikasida chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish bo'yicha 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dasturni tasdiqlash to'g'risida»gi qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo'nalishlari doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Quyonlarning modda almashinuvi buzilishi kasalliklari, xususan kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining, etiologiyasi, kechish xususiyatlarini o'rganish va oldini olish usullarini ishlab chiqish bo'yicha xorijiy olimlardan V.C.Александрова, К.П.Данилов, М.В.Дорош, В.Ф.Литвинов, В.С.Романов, С.П.Жуков, Л.М.Кашковская, А.Шевченко, Л.Шевченко, Т.А.Рулева, Н.Ю.Сарбатова, А.В.Востроилов, Е.Е.Курчаева, В.Л.Пасенко, Н.А.Балакирев, Ю.А.Калугин, Н.А.Череменина, К.А.Сидорова, Е.В.Миронова, S.N.Hermida, M.Miranda kabi olimlar tomonidan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va ilmiy-amaliy natijalarga erishilgan.

Respublikamiz olimlaridan hayvonlarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarini diagnostika qilish va oldini olish chora-tadbirlari bo'yicha T.Maxkamov, R.M.Kim, X.Z.Ibragimov, M.B.Safarov, Q.N.Norboyev A.J.Rahmonov, B.B.Bakirov, B.M.Eshburiyev va S.B.Eshburiyevlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ammo respublikamizda quyonlarda modda almashinuvi buzilishi kasalliklarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilmagan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilayotgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqotlari Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universitetining quyonchilik xo'jaliklari bilan hamkorlikda tuzilgan xo'jalik shartnomalari (Shartnoma №Q-03/21. 10.03.2021y.) hamda «Parranda, baliq,

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»³ farmoni

asalari va mo'ynali hayvonlar kasalliklari» kafedrasining «Parranda va quyonlar kasalliklarini oldini oluvchi va davolovchi ekologik toza mahalliy probiotiklar yaratish» mavzusidagi PZ - 2020123121 – raqamli innovatsion loyiha (2021-2023-yy.) doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi quyonlarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarining etiologiyasi, kechish xususiyatlari, simptomlarini o'rganish hamda ertachi diagnostika va guruhli profilaktika qilish usullarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Xikol va velikan zotli quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining tarqalishi va iqtisodiy zararini aniqlash;

quyonlarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarining sabablari, kechish xususiyatlari va simptomlarini o'rganish;

quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining klinik va gematologik tekshirishlarga asoslangan ertachi tashxis usullarini ishlab chiqish;

quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini guruhli profilaktika qilishning samarali usullarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida Samarqand viloyatining quyonchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari sharoitida urchitilayotgan xikol va velikan zotli quyonlar, oziqa namunalari, qon va suyak namunalari, Nova marks vitamin mineralli premiksi, baktovit va Innoprovot probiotiklari, boyitilgan granulalangan omuxta yem olingan.

Tadqiqotning predmeti quyonlarning klinik, gematologik ko'rsatkichlari, suyaklardagi patologoanatomik o'zgarishlar, quyonlarning tana vazni, ratsion tarkibi va to'yimligi tahlili hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy-tadqiqotlarni bajarishda klinik, morfologik, biokimyoviy, refraktometrik, patologoanatomik, oziqa namunalari zootexnikaviy tahlil qilish va statistik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatining quyonchilik xo'jaliklari sharoitidagi xikol zotli quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari ratsiondagi kalsiyni 18,89%, fosforni 36,15%, hazmlanuvchi proteinni 8,52% va karotinni 35,5% ga yetishmasligi oqibatida kelib chiqishi aniqlangan;

quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari shilliq pardalarning anemiyasi, teri qoplamasining hurpayishi, yaltiroqligining pasayishi, qovurg'a suyaklari orasida bo'rtiqchalar paydo bo'lishi, bola berishning 40-50% ga kamayishi kabi xarakterli simptomlar bilan kechishi ilmiy asoslangan;

quyonlarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlari gipogemoglobinemiya, gipoglikemiya, gipokalsiyemiya va gipofosforemiya hamda ishqoriy fosfataza fermenti faolligining oshishi bilan xarakterlanishi tajribalarda isbotlangan;

quyonlar kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarini oldini olishda Nova marks vitamin-mineralli premiksi (1kg/1 tonna granula shaklidagi omuxta yemga) va Innoprovot probiotigini (1 litr suvga/1 g) qo'llash usuli ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining asosiy sabablari quyonlarda kalsiy, fosfor, hazmlanuvchi protein va karotin bilan ta'minlanishining ular ehtiyojlarini to'liq qondirilmashligi ekanligi aniqlangan;

quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari teri qoplamasining hurpayishi va yaltiroqligining pasayishi, qovurg'a suyaklari orasida bo'rtiqchalar paydo bo'lishi, quyon bolalarining tug'ilgandagi tana vaznining me'yoriy ko'rsatkichlarga nisbatan kam bo'lishi kabi xarakterli simptomlar bilan kechishi ilmiy asoslangan;

quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini dispanserlash asosida klinik tekshirishlar va qondagi gemoglobin miqdori, qon zardobidagi umumiy oqsil, umumiy kalsiy, anorganik fosfor va ishqoriy fosfataza fermenti faolligini aniqlashga asoslanib diagnostika qilish usuli ishlab chiqilgan;

kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarini guruhli profilaktika qilish uchun quyonlar bo'g'ozligining 10- kunidan boshlab, tug'ishdan keyingi 10-kunigacha Nova Marks vitamin-mineralli premiksida (1 kg/1 tonna yemga) aralashtirilgan granulali yem va Innoprovot probiotigini (1 litr suvga 1 g) qo'llash usuli ishlab chiqilib amaliyotga tadbiiq etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ilmiy tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishning zamonaviy yangi usullardan foydalangan holda o'tkazilganligi, klinik, biokimyoviy, morfologik, zootexnikaviy usullardan foydalanish va raqamli ma'lumotlarga statistik ishlov berish, shuningdek, olingan nazariy natijalarning tajriba ma'lumotlari bilan to'g'ri kelishi, tadqiqot natijalarining xorijiy va mahalliy tajribalar bilan taqqoslanganligi, ishning «Parranda va quyonlar kasalliklarini oldini oluvchi va davolovchi ekologik toza mahalliy probiotiklar yaratish» mavzusidagi PZ - 2020123121 – raqamli innovatsion loyiha (2021-2023-yy.) doirasida bajarilganligi, shuningdek, laboratoriya va ishlab chiqarish tajribalarining dalolatnomalarga asoslanganligi, olingan natijalarning mutaxassislar tomonidan tasdiqlab ijobiy baholanganligi bilan isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishining sabablari va kechish xususiyatlarining aniqlanganligi, quyonlar bo'g'ozlik davrida balanslashmagan ratsionlarda boqilganda surunkali xarakterda kechishi, ulardan gipotrofik holatdagi bolalarning tug'ilishi, kasallik paytidagi gematologik ko'rsatkichlar va suyaklardagi patologoanatomik o'zgarishlarning aniqlanganligi, quyonlar ratsionini balanslashtirish va mahalliy probiotiklar, vitamin – mineralli premiksalar bilan boyitish orqali takomillashtirish, ushbu patologiyani oldini olish chora-tadbirlarini ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining oldini olish uchun granulali yem (Nova Marks vitamin-mineralli premiksi bilan boyitilgan 1kg./1 tonna) va mahalliy Innoprovot probiotigini qo'llash (7 kun davomida 1g/ 1 litr suv) bilan profilaktika qilish chora-tadbirlarini takomillashtirilganligi, natijada quyonlar organizmida ijobiy ta'siri aniqlanganligi, ularda klinik, gematologik ko'rsatkichlarning me'yorlar darajasida yaxshilanishi, quyon bolalarining tug'ilgandagi tana vazni nazoratga nisbatan o'rtacha 28,4 foizga

yuqori bo‘lishiga erishilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Quyonlarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishining diagnostikasi va profilaktikasi bo‘yicha olib borilgan ilmiy-tadqiqot natijalari asosida:

“Quyonlarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarining diagnostikasi va oldini olish usullari” bo‘yicha tavsiyanoma ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2023-yil 30-noyabr 02/23-526-son ma‘lumotnomasi). Natijada quyonlarning kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining sabablari, simptom va sindromlarini aniqlash asosida kasallikni ertachi diagnostika hamda profilaktika qilishga erishilgan;

quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini dispanserlash asosida klinik tekshirishlar va qondagi gemoglobin miqdori, qon zardobidagi umumiy oqsil, umumiy kalsiy, anorganik fosfor hamda ishqoriy fosfataza fermenti faolligini aniqlashga asoslanib diagnostika qilish usuli ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan. (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2023-yil 30-noyabr 02/23-526-son ma‘lumotnomasi). Natijada quyonlarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarini barvaqt aniqlash va oldini olishga imkon yaratilgan;

quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini oldini olish uchun Nova Marks vitamin-mineralli premiksi 1kg/1 tonna hisobiga qo‘shilgan granulali yem bilan oziqlantirish va Innoprovot probiotigini 1g/1 litr suv bilan aralashtirib berish usuli ishlab chiqilgan va quyonchilik xo‘jaliklarida joriy qilingan (O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining 2023-yil 30-noyabr 02/23-526-son ma‘lumotnomasi). Natijada quyonlar organizmida klinik-fiziologik ko‘rsatkichlarning me‘yorda bo‘lishi hamda ulardan tug‘ilgan bolalarida tana vaznining o‘rtacha 28,4% ga yuqori bo‘lishiga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya natijalari 3 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 17 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, ularning 4 tasi Respublika ilmiy-amaliy va 1 tasi xorijiy jurnallarda, 3 ta xalqaro va 7 ta Respublika ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlarida nashr etilgan. 1 ta tavsiyanoma va 1 ta monografiya chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqotlar mavzusining dolzarbligi va zaruriyati, mavzuning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi, dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, tadqiqotning obyekti va

predmetlari, tadqiqotning usullari, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi va aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Adabiyot ma'lumotlarining tahlili**» deb nomlangan birinchi bobi uch qismga bo'lingan bo'lib, uning birinchi «Quyonglar organizmida mineral moddalar va vitaminlarning ahamiyati» deb nomlangan qismida mineral moddalar va vitaminlarning quyonglar organizmidagi roli bayon etilgan. Ushbu bobning «Quyonglarda mineral moddalar almashinuvi buzilishlarining sabablari va simptomlari» deb nomlangan ikkinchi qismida quyonglarda mineral moddalar almashinuvi buzilishlarining sabablari va simptomlarini aniqlash usullari, patogenezi va kechish xususiyatlari keltirilgan.

«Quyonglarda mineral moddalar almashinuvi buzilishlarining diagnostikasi, davolash va oldini olish chora-tadbirlari» deb nomlangan uchinchi qismida quyonglarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarini oldini olish usullari to'g'risidagi Respublikamiz va xorijiy olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarining natijalari bayon etilgan.

Dissertatsiyaning «**Tadqiqotlar joyi, obyekti va usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot joyi, obyekti va usullari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. Ilmiy tadqiqotning eksperimental qismi 2019-2023-yillar davomida Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi "San'at" ixtisoslashgan quyongchilik xo'jaligi, "Tarnov-sabzavotlari" va "Kumushkent-Xumo Qushi", Jomboy tumanidagi "Nurniyoz Ota" fermer xo'jaliklari negizida tashkil etilgan quyongchilik xo'jaliklarida o'tkazildi.

Quyongchilik xo'jaliklarida 2019-2023-yillar davomida jami bo'lib 748 bosh xikol va velikan zotli quyonglarda dispanser tekshirishlar o'tkazildi. Bunda "Кролики: породы, разведение, содержание, уход" (Житникова Ю.Ж. 2004). deb nomlangan tavsiyanomadan foydalanildi. Dispanser tadqiqotlar o'tkazish bilan quyonglarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarining tarqalishi, sabablari, rivojlanish xususiyatlari, xo'jaliklarga keltiradigan iqtisodiy zarari, klinik belgilari, qonning biokimyoviy o'zgarishlari, quyonglarning reproduktiv xususiyatlari, mahsuldorligi va ulardan tug'ilgan bolalarining o'sishi va rivojlanishi, tug'ilgandagi tana vazni hamda yashovchanligi tahlil qilindi.

Quyonglar ratsionidagi oziqalarning to'yimlilik va hazmlanuvchi protein miqdori "O'simlikshunoslik va yem-xashak yetishtirish" kafedrasining "Oziqalar tarkibi va to'yimlilikning tahlili" laboratoriyasida "Glazer" apparati yordamida aniqlandi. Olingan natijalar me'yoriy ko'rsatkichlar bilan taqqoslandi.

Xo'jaliklardagi bo'g'oz ona quyonglardan 10 boshdan ajratilib klinik ko'rikdan o'tkazish orqali umumiy qabul qilingan klinik tekshirish usullari bilan umumiy holat, ishtahasi, semizlik darajasi, tashqi ta'sirlarga javob reaksiyasi, shilliq pardalar rangi, teri qoplamasi, teri va harakat a'zolarining holati, tana harorati, 1 daqiqadagi nafas va puls soni aniqlandi.

Tajribadagi quyonglardan olingan qon namunalarida laborator tekshirishlar SamDVMChBU "Parranda, baliq, asalari va mo'ynali hayvonlar kasalliklari" kafedrasidagi "OPTATECH" kafedralararo laboratoriyasida va "Ichki yuqumsiz

kasalliklar” kafedrasining “Gematologiya” laboratoriyasida o‘tkazildi. Qondagi gemoglobin miqdori Sali gemometri yordamida, glyukoza miqdori Contour plus markali glyukometr yordamida, qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori (RNC-portativ refraktometri yordamida) refraktometrik usulda aniqlandi.

Quyondan ajratilgan suyak namunalarida patologoanatomik va organoleptik tekshirishlar o‘tkazildi. Suyak namunalarini quritish, o‘lchash, PZ - 2020123121 – raqamli Innovatsion loyiha asosida jihozlangan laboratoriyada olib borildi. Suyaklarni quritish SNOL 8,2/1100 markali quritish shkafida, o‘lchash XY10002C markali tarozida amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning uchinchi **«Quyonlarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarining etiologiyasi va diagnostikasi»** nomli bobida quyonlarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishining etiologiyasi va simptomlari, ularni saqlash va oziqlantirish sharoitlarining tahlili, klinik tekshirishlar, gematologik tekshirishlar hamda suyaklarda patanatomik tekshirishlar natijalari bayon etilgan.

Ilmiy tadqiqotlar Samarqand viloyati, Oqdaryo tumanidagi “San’at, “Tarnov-sabzavotlari”, “Kumushkent Xumo- Qushi” va “Nurniyoz ota” quyonchilik fermer xo‘jaliklaridagi xikol va velikan zotiga mansub quyonlarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarining sabablari, klinikasi va rivojlanish mexanizmlarini o‘rganish maqsadida 748 bosh quyonlarda o‘tkazildi.

Mazkur bobning “Quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining etiologiyasini o‘rganish natijalari” deb nomlangan qismida quyonchilik xo‘jaliklaridagi bo‘g‘oz quyonlarning saqlash va oziqlantirish sharoitlari tahlili berilgan. Samarqand viloyati, Oqdaryo tumani “Tarnov sabzavotlari” quyonchilik fermer xo‘jaligidagi bo‘g‘oz quyonlarning ratsion strukturasi dag‘al oziqalar 30 % ni, shirali oziqalar 20 % ni, konsentrat oziqalar 50 % ni tashkil etdi. Kalsiy fosfor nisbati (me‘yorda 1,6:1 nisbatda bo‘lishi kerak) 2,1:1 ni tashkil etdi. Quyonlar ratsionidagi kalsiy va fosfor nisbatlarining buzilishi hazm tizimida bu minerallarni so‘rilishining buzilishi va organizmida kalsiy va fosfor almashinuvining buzilishiga olib kelishi haqida ilmiy manbalarda ma’lum qilinadi.


Ratsiondagi to‘yimli moddalar bilan quyonlarning ta‘minlanish darajasi tekshirilganda, kalsiy 85,46%, fosfor 63,25%, karotin 64,0%, xom kletchatka 86,15%, quruq modda 91,17%, hazmlanuvchi protein 91,2 % ni tashkil etishi aniqlandi.

Quyonlar ratsionini tahlil qilish bilan, ratsionning balanslashmaganligi, fosfor-kalsiy nisbatlarining buzilganligi, ratsionning to‘yimliliigi va oziq birligi quyonlar organizmi uchun yetarli darajada emasligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning “Quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarining diagnostikasi” deb nomlangan bo‘limida quyonlarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishi paytidagi klinik o‘zgarishlar, klinik va gematologik tekshirish natijalari bayon etilgan.

Quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlari paytida kuzatiladigan simptomlarni hamda qondagi morfobiokimyoviy o‘zgarishlarni o‘rganish maqsadida Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi “Nurniyoz Ota”, “Kumushkent Xumo Qushi” va “Tarnov sabzavotlari” quyonchilik xo‘jaliklarida o‘tkazildi.

Quyunchilik xo‘jaliklaridagi quyonlar umumiy ko‘rikdan o‘tkazilganda “Kumushkent Xumo Qushi” xo‘jaligida jami 120 bosh quyonlarning 72 boshida (60%), “Nurniyoz Ota” xo‘jaligida jami 250 bosh quyonlarning 123 boshida (49,2%), “Tarnov sabzavotlari” quyunchilik xo‘jaligida jami 243 bosh quyonlarning 86 boshida (35,30%), San‘at quyunchilik xo‘jaligida 135 bosh velikan quyonlardan -62 boshida (45,9%) kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishi (ishtahaning o‘zgarishi-koprofagiya, shilliq pardalar oqarishi, semizlik darajasining o‘rtadan pastligi, tashqi ta’sirotlarga javob reaksiyasining pasayishi, teri qoplamasining hurpayishi, yaltiroqlikning pasayishi) belgilari borligi aniqlandi (1-rasm).



1- rasm. Quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishining klinik belgilari

“Kumushkent Xumo Qushi” quyunchilik xo‘jaligidagi xikol zotiga mansub 15 bosh 4-4,5 oylik quyonlarni bo‘g‘ozlik paytidagi holati, klinik belgilari, gematologik ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Tug‘ilgan bolalarining tug‘ilgandagi vazni aniqlandi va o‘sinh davomida 15 bosh etalon guruh sifatida ajratilib, 20, 30 va 40 kunliklarida klinik va gematologik tekshirishlar davom ettirildi.

“Kumushkent Xumo Qushi” quyunchilik xo‘jaligida tekshirishlar boshida deyarli barcha quyonlarda ishtahaning pasayishi, ko‘rinadigan shilliq pardalar rangining oqarishi, semizlik darajasi o‘rtadan pastligi aniqlandi, bo‘g‘ozlikning 30-kuniga kelib 8 bosh (53,3%) quyonlarda tashqi ta’sirotlarga javob reaksiyasining pasayishi, teri qoplamasining hurpayishi, yaltiroqlikning pasayishi kuzatilgan bo‘lsa, tuqqandan keyingi 10- kuniga kelib, 11 bosh quyonlarda (73,3%) ko‘rinadigan shilliq pardalarning kuchli darajada oqarishi, qovurg‘alar orasida bo‘rtiqchalar, tana vaznining kamayishi, ishtahaning o‘zgarishi (koprofagiya) kabi belgilar kuzatildi.

Quyonlarning reproduktiv xususiyatlari o‘rganilganda “Tarnov sabzavotlari” fermer xo‘jalidagi ona quyonlardan o‘rtacha 8-9 tadan bola olinishi aniqlandi,

shundan o'lik bola tug'ilishi bir bosh quyondan 2-3 tani tashkil etdi. Bu holat ona quyonlardan bola olinishini o'rtacha 33,3 % ga kamligini ko'rsatadi.

“Nurniyoz ota” fermer xo'jaligida quyonlardan bola olinishi o'rtacha 7-8 tadan, o'lik tug'ilish holati (37,5%) 2-3 tani, “Kumushkent Xumo Qushi” quyonchilik xo'jaligida ona quyonlardan bola olinishi o'rtacha 8-10 tani, o'lik tug'ilish 4-5 tani tashkil etib, bunda bola olinishining o'rtacha 50,5 % ga kamligi aniqlandi. Bu holat quyonlarning bo'g'ozlik davrida modda almashinuvlari buzilishlari hisobiga o'rtacha 40-50% ga bola olishning kamayishidan dalolat beradi. Bu holat quyonlarda bo'g'ozlik davrining oxirlashishi bilan ularda mineral moddalar almashinuvi buzilishlarining chuqurlashib borishidan dalolat beradi.

Quyonlarning klinik ko'rsatkichlarini o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularning tana harorati bo'g'ozligining 10- kunida o'rtacha $38,2 \pm 0,01$ °C ni tashkil etgan bo'lsa, 20- kunida $37,6 \pm 0,04$ °C ni, tug'ishdan keyingi 10- kuni o'rtacha $38,2 \pm 0,01$ °C ni tashkil etdi.

1-jadval.

Quyonlarning klinik ko'rsatkichlari (n=15), M±m.

Tekshirishlar vaqti	Tana harorati, °C	Puls soni, 1 daqiqada	Nafas soni, 1 daqiqada
Bo'g'ozlikning 10- kuni	$38,2 \pm 0,01$	$116,5 \pm 4,1$	$54,9 \pm 0,03$
Bo'g'ozlikning 20-kuni	$37,6 \pm 0,04$	$128,4 \pm 3,9$	$56,8 \pm 0,07$
Tug'ishdan keyingi 10- kuni	$38,2 \pm 0,01$	$155,4 \pm 3,8$	$62,9 \pm 0,02$
P<	(P<0,05)	(P<0,01)	(P<0,05)

1 daqiqadagi puls soni quyonlar bo'g'ozligining 10-kunida o'rtacha $116,5 \pm 4,1$ martani tashkil etgan bo'lsa, 20- kunida $128,4 \pm 3,9$ martani, tug'ishdan keyingi 10- kunida o'rtacha $155,4 \pm 3,8$ martagacha oshganligi xarakterli bo'ldi. 1 daqiqada nafas olish soni shunga mos holda o'rtacha $54,9 \pm 0,03$, $56,8 \pm 0,07$ va $62,9 \pm 0,02$ martani (P<0,05) tashkil etdi (1-jadval).

Quyon bolalarida klinik ko'rsatkichlarni o'rganish shuni ko'rsatdiki, ularning tana harorati 20 kunlikda o'rtacha $38,9 \pm 0,06$ °C ni tashkil etgan bo'lsa, 30 kunlikda $38,7 \pm 0,03$ °C ni, 40 kunlikda $38,6 \pm 0,02$ °C ni tashkil etishi qayd etildi.

1 daqiqadagi puls soni quyonlarning 20 kunligida o'rtacha $115,8 \pm 3,9$ martani tashkil etgan bo'lsa, 30 kunligida $124,3 \pm 3,7$ martani, 40 kunligida o'rtacha $157,4 \pm 4,5$ martagacha oshganligi xarakterli bo'ldi. 1 daqiqada nafas olish soni shunga mos holda o'rtacha $53,6 \pm 0,05$, $55,8 \pm 0,06$ va $63,4 \pm 0,04$ martani tashkil (P<0,05) etdi (2-jadval).


Quyonlarda gematologik tekshirish natijalari qondagi gemoglobin miqdori bo'g'ozlikning 10- kunida o'rtacha $128,8 \pm 2,6$ g/l ni, 20- kuni o'rtacha $101,5 \pm 3,4$ g/l ni tashkil etib, tug'ishdan keyingi 10-kuni $90,2 \pm 4,1$ g/l gacha kamayishini (P<0,001)

(2-rasm) ko'rsatdi. Qondagi gemoglobin miqdori me'yoriy ko'rsatkichlarga nisbatan (me'yor-100,5-160 g/l) ham kamayish dinamikasini namoyon etdi. Quyonlar organizmida gipogemoglobinemiya kuzatilishi barcha tizim va organlar funksional holatida patologik o'zgarishlarga olib kelishi mumkin.

2-jadval.

Quyon bolalarining klinik ko'rsatkichlari (n=15), M±m.


Tekshirishlar vaqti	Tana harorati, °C	Puls soni, 1 daqiqada	Nafas soni 1 daqiqada
20 kunlik	38,9±0,06	115,8±3,9	53,6±0,05
30 kunlik	38,7±0,03	124,3±3,7	55,8±0,06
40 kunlik	38,6±0,02	157,4±4,5	63,4±0,04
P<	(P<0,05)	(P<0,01)	(P<0,05)



2- rasm. Ona quyonlar qonidagi gemoglobin va umumiy oqsil miqdorining o'zgarish dinamikasi

Qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori tekshirishlar boshida o'rtacha 66,3±2,8 g/l ni tashkil etgan bo'lsa, tekshirishlarning oxiriga kelib o'rtacha 56,8±2,2 g/l gacha kamayganligi, glyukoza miqdori shunga mos ravishda o'rtacha 3,54±0,06 mmol/l dan 3,14±0,06 mmol/l gacha, umumiy kalsiyni 2,26±0,16 mmol/l dan 2,10±0,36 mmol/l gacha, anorganik fosforni 1,4±0,08 mmol/l dan 1,02±0,06 mmol/l gacha kamayishi xarakterli bo'ldi (3- rasm). Ishqoriy fosfataza fermentining faolligi quyonlar

bo'g'ozligining 10- kunida $0,98 \pm 0,02$ mmol/s.l., 20- kunida $1,32 \pm 0,01$ mmol/s.l. ni tashkil etib, tug'ishdan keyingi 10- kunida o'rtacha $1,65 \pm 0,03$ mmol/s.l. gacha oshganligi aniqlandi.



3- rasm. Ona quyonlar qonidagi umumiy kalsiy va anorganik fosforning o'zgarish dinamikasi

Quyon bolalarining o'sish davomida gematologik ko'rsatkichlari tahliliga ko'ra 20 kunligida qondagi gemoglobin miqdori o'rtacha $114,8 \pm 1,4$ g/l ni, 30 kunligida $112,6 \pm 2,8$ g/l ni tashkil etib, 40 kunligida o'rtacha $110,5 \pm 1,3$ g/l gacha kamaydi. Umumiy oqsil miqdori shunga mos holda o'rtacha $76,22 \pm 3,4$ g/l, $64,8 \pm 2,6$ g/l va $62,3 \pm 3,12$ g/l, glyukoza o'rtacha $3,68 \pm 0,42$ mmol/l, $3,55 \pm 0,225$ mmol/l va $3,26 \pm 2,346$ mmol/l gacha, umumiy kalsiy miqdori $2,34 \pm 0,214$ mmol/l, $2,26 \pm 0,174$ mmol/l va $2,16 \pm 0,136$ mmol/l gacha, anorganik fosfor $1,3 \pm 0,04$ mmol/l dan $1,12 \pm 0,06$ mmol/l gacha kamayishi tekshirishlarda aniqlandi.

Ishqoriy fosfataza faolligi quyonlarning 20 kunligida o'rtacha $1,24 \pm 0,04$ mmol/s.l. ni tashkil etgan bo'lsa, 30 kunlik davrida $1,35 \pm 0,05$ mmol/s.l., 40 kunlik davriga kelib o'rtacha $1,68 \pm 0,06$ mmol/s.l. gacha oshganligi qayd ($P < 0,01$) etildi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi **“Quyonlarda kalsiy va fosfor almashinuvi buzilishlarini guruhli profilaktika qilish tajribalarining natijalari”** deb atalgan bobida quyonlarda kalsiy-fosfor almashinuvi buzilishlarini profilaktika qilish vositalarini tanlash, ularni quyonlar organizmiga ta'sirini o'rganish maqsadida o'tkazilgan tajribalar natijasi keltirilgan. Tajribalar Samarqand viloyatining Oqdaryo tumanidagi “Tarnov - sabzavotlari” quyonchilik xo'jaligida o'tkazildi. Xo'jalikdagi xikol zotiga mansub 20 bosh 6 oylik su'niy urug'lantirilgan bo'g'oz quyonlardan iborat har birida 5 boshdan to'rtta guruhga ajratildi.

Birinchi tajriba guruhi baktovit probiotigi bilan boyitilgan granulali omuxta yem bilan (1tonna yemga 1 kg kukun holda), 2-tajriba guruhi granulali yem (1tonna

yemga 1 kg Nova Marks premiksi bilan boyitilgan), 3-guruhga granulali yem (1tonna yemga 1 kg Nova Marks premiksi bilan boyitilgan) va Innoprovit 1 ml 1 litr suv bilan (7 kun davomida), nazorat guruhi xo‘jalik ratsionida oziqlantirildi. Tajribadagi quyonlarda klinik va gematologik tekshirishlar o‘tkazildi. Ona quyonlarni klinik ko‘rikdan o‘tkazish orqali umumiy qabul qilingan klinik tekshirish usullari bilan umumiy holat, ishtaha, semizlik darajasi, tashqi ta’sirlarga javob reaksiyasi, shilliq pardalar rangi, teri qoplamasi, teri va harakat a’zolari holati, tana harorati, 1 daqiqadagi puls va nafas soni aniqlandi. Quyonlardan tug‘ilgan bolalarining tug‘ilgandagi tana vazni, 10 kunlikda, 20 kunlikda va 30 kunlikda aniqlandi. Tajribalar 30 kun davom etdi.

Tajribadagi quyonlarda bo‘g‘ozlikning 10 kunidan boshlab har 10 kunda va tug‘ishdan keyingi 10 kuni bir marta o‘tkazilgan klinik tekshirishlar natijasiga ko‘ra barcha tajriba guruhlaridagi quyonlarning tana harorati tajribalarning boshida fiziologik me‘yorlar chegarasida bo‘lib, ishtahaning pasayishi, shilliq pardalarning oqarishi, semizlik darajasining o‘rtadan pastligi, quyonlarda tashqi ta’sirotlarga javob reaksiyasining pasayishi, teri qoplamasining hurpayishi, yaltiroqligining pasayishi kuzatildi.

Tajribalar davomida bu o‘zgarishlar tajriba guruhlarida ijobiy tomonga o‘zgarishi qayd etilgan bo‘lsa, nazorat guruhida tajriba boshida aniqlangan simptomlar takrorlanib borishi kuzatildi. Bundan ko‘rinib turibdiki, quyonlarda bo‘g‘ozlikning oxirlashib borishi bilan ularda mineral moddalar almashinuvi buzilishlarining chuqurlashib borishi kuzatildi.

Tajribadagi quyonlarda gematologik ko‘rsatkichlar, gemoglobin miqdorining tajribalarning oxiriga kelib 1-tajriba guruhida o‘rtacha $122,4 \pm 3,1$ g/l gacha, 2- tajriba guruhida $124,8 \pm 3,3$ g/l gacha, 3-tajriba guruhida o‘rtacha $115,5 \pm 3,6$ g/l dan tajribaning oxirida $128,2 \pm 4,1$ g/l gacha oshishi, nazorat guruhida tajribalarning oxirida bu ko‘rsatkich $110,2 \pm 2,2$ g/l gacha kamayishi bilan ($P < 0,001$) xarakterlandi.

Qon zardobidagi umumiy oqsil miqdori tajribalarni boshida 1- tajriba guruhida o‘rtacha $52,71 \pm 1,85$ g/l, tajribalarni oxiriga kelib $64,20 \pm 1,50$ g/l ni tashkil etgan bo‘lsa, 2- tajriba guruhida shunga mos holda $53,84 \pm 1,92$ g/l dan $62,6 \pm 1,48$ g/l gacha, 3- tajriba guruhida o‘rtacha $52,18 \pm 1,74$ g/l dan $66,24 \pm 1,58$ g/l gacha oshganligi aniqlandi, nazorat guruhida bu ko‘rsatkichning tajribalar oxiriga kelib o‘rtacha $54,26 \pm 1,96$ g/l dan $53,86 \pm 1,68$ g/l gacha ($P < 0,05$) kamayganligi aniqlandi.


Tajribadagi quyonlar qonidagi glyukoza miqdorining tahliliga ko‘ra, 1- tajriba guruhida tajriba boshida o‘rtacha $3,26 \pm 0,561$ mmol/l dan tajribani oxiriga kelib $3,58 \pm 0,622$ mmol/l gacha, shunga mos holda 2-tajriba guruhida $3,28 \pm 0,542$ mmol/l va $3,76 \pm 0,422$ mmol/l gacha, 3-tajriba guruhida $3,30 \pm 0,544$ mmol/l va $3,98 \pm 0,020$ mmol/l gacha oshganligi, nazorat guruhida $3,24 \pm 0,574$ mmol/l dan $2,98 \pm 0,502$ mmol/l gacha kamayishi kuzatildi, umumiy kalsiy miqdori 1-guruhda tekshirishlarning boshida o‘rtacha $2,22 \pm 0,561$ mmol/l ni tashkil qilib, oxirida $2,68 \pm 0,261$ mmol/l gacha, 2-guruhda $2,16 \pm 0,190$ mmol/l dan $2,86 \pm 0,080$ mmol/l gacha, 3-guruhda $2,38 \pm 0,361$ mmol/l dan $3,42 \pm 0,292$ mmol/l gacha ko‘payishi, nazorat guruhida $2,26 \pm 0,148$ mmol/l dan $1,88 \pm 0,046$ mmol/l gacha kamayishi kuzatildi, anorganik fosfor miqdori 1- guruhda tajriba boshida $1,2 \pm 0,071$ mmol/l dan

oxirida $1,8 \pm 0,068$ mmol/l gacha, mos holda 2- guruhda $1,3 \pm 0,052$ mmol/ l dan $1,8 \pm 0,082$ mmol/l gacha, 3- guruhda $1,4 \pm 0,062$ mmol/l dan $2,0 \pm 0,092$ mmol/l gacha ko'payishi, nazorat guruhida $1,4 \pm 0,028$ mmol/l dan $1,2 \pm 0,039$ mmol/l gacha kamayishi ($P < 0,01$) kuzatildi.

Tajribadagi ona quyonlar tana vaznini o'rganish shuni ko'rsatdiki, tajriba boshida quyonlarning tirik vazni bo'yicha katta farqlar kuzatilmadi, ammo 20 kunlik bo'g'ozlik davriga borib, 3-guruh quyonlar tana vazni o'rtacha $5,16 \pm 1,76$ kgni tashkil etib, boshqa guruhlariga nisbatan ustunlik qilganligi aniqlandi.

Bu ko'rsatkich 1-guruhda o'rtacha $4,72 \pm 0,76$ kg, 2-guruhda $4,74 \pm 0,82$ kgni va nazorat guruhida o'rtacha $4,65 \pm 0,42$ kgni tashkil etdi. 3- tajriba guruhidagi quyonlarga Nova Marks premiksi bilan boyitilgan granulali yem va Innoprovot probiotigini ichadigan suvi bilan berilishi ular organizmida oshqozon-ichak faoliyatini va hazmlanish jarayonlarini yaxshilanishi evaziga boshqa tajriba guruhlariga nisbatan ko'rsatkichlar yaxshiroq namoyon bo'lganligi aniqlandi.

Tajribadagi xikol zotli quyonlardan tug'ilgan bolalarining tana vazni 4-rasmdan ko'rinib turibdiki, (me'yorda tug'ilgandagi tirik vazni 40-90 g) 1- tajriba guruhidagi quyonchalarning vazni o'rtacha $55,6 \pm 10,2$ grammni, 2- guruhda $56,8 \pm 12,2$, 3-guruhda $78,4 \pm 15,4$ va nazorat guruhida o'rtacha $56,5 \pm 12,8$ grammni tashkil qildi. 3- tajriba guruhidagi quyonlardan tug'ilgan quyon bolalarining tug'ilgandagi tana vazni boshqa guruhlariga nisbatan ustunligi qayd etildi. 10 kunlikda (me'yor bo'yicha 130-260 gr) esa mos holda guruhlar bo'yicha o'rtacha $190,8 \pm 18,5$, $182,4 \pm 22,4$, $206,8 \pm 16,6$ va $178,7 \pm 15,7$ grammni tashkil qilgan va bu yerda ham 3-guruh quyon bolalarida tana vaznining ustunligi qayd etildi (4-rasm).



4-rasm. Tajribadagi quyonlardan tug'ilgan bolalarining tana vazni (n=20)

20 kunlikda (me'yor 250-500 g) mos holda o'rtacha $275,7 \pm 25,4$, $288,5 \pm 22,8$, $450,2 \pm 35,4$ va $250,3 \pm 22,4$ grammni, 30 kunlikda (me'yor 400-900 g) o'rtacha $450,6 \pm 35,5$, $460,8 \pm 28,9$, $650,4 \pm 38,2$ va $392,6 \pm 26,8$ grammni tashkil qildi. Innoprovot

probiotigi va Nova Marks preparatlari berilgan 3-tajriba guruhidagi quyonlardan tugʻilgan bolalarining tirik vazni boshqa tajriba va nazorat guruhlariga nisbatan yuqori boʻlganligi qayd etildi.

Quyonlarda moddalar almashinuvi buzilishlarini oldini olishda ularga boʻgʻozlikning 10- kunidan boshlab tugʻishdan keyingi 10- kunigacha boʻlgan davrda Innoprovot probiotigini qoʻllashning samarasi yuqori boʻlib, quyonlarda moddalar almashinuvini yaxshilaydi, klinik va gematologik koʻrsatkichlarni meʼyorlar darajasida, ulardan tugʻilgan bolalarining tugʻilgandagi tana vaznini nazorat guruhiga nisbatan 21,9 grammga yuqori boʻlishini taʼminlaydi.

Ikkinchi bosqich tajribalar “Nurniyoz ota” fermer xoʻjaligidan Universitet vivariyasiga keltirilgan xikol zotiga mansub ona quyonlarda oʻtkazildi.

Tajribalar uchun har birida 5 boshdan 4-4,5 oylik quyonlardan iborat boʻlgan uchta guruh tashkil etildi. Tajribalar uchun tanlangan quyonlar sunʼiy urugʻlantirildi.

Birinchi tajriba guruhiga granulali omuxta yem baktovit probiotigi bilan boyitilgan (1tonna yemga 1 kg kukun hoida) berib oziqlantirildi.

